


19-§. AMALIY MASHG‘ULOT. JISMLARDA ISSIQLIK MUVOZANATINI O‘RGANISH

Mashg‘ulotning maqsadi: issiqlik muvozanatining yuzaga kelish jarayoni-ni kuzatish.

Kerakli jihozlar: idish, issiq va sovuq suv, ikkita termometr, elektron soat, polietilen paket, shtativ va ip.



Mashg‘ulotni bajarish tartibi:

1. Quyidagi jadvalni chizib olamiz.

Kuzatilgan vaqt (minut)	0	1	2					
Issiq suv temperaturasi								
Sovuq suv temperaturasi								

– idishga issiq suvni solamiz. Idishdagi issiq suvning temperaturasi-ni o‘lchab borish uchun unga termometrni tushiramiz;

– polietilen paketga sovuq suv solamiz. Idishdagi sovuq suvning tempera-turasini o‘lchash uchun unga termometrni tushiramiz;

– polietilen paketga solingan suv termometr bilan birgalikda issiq suv so-lingan idish ichiga tushiriladi;

– biroz kutamiz. So‘ng har bir minutda issiq va sovuq suv ichidagi ter-mometrlarning ko‘rsatkichini qayd qilamiz va ularni jadvalga yozib boramiz;

– suvlarning termodinamik muvozanat temperaturasi va termodinamik mu-vozanat yuzaga kelgan vaqt aniqlanadi. Olingan natijalar jadvalga qayd etiladi;

– termodinamik muvozanat yuzaga kelgandan keyin ham kuzatuvni bir necha minut davom ettiramiz;

– koordinata tekisligida vaqt bo‘yicha issiq suvning sovishi, sovuq suvning isishini grafik tarzda tasvirlang. O‘tkazilgan mashg‘ulot yuzasidan o‘z xu-losangizni yozing.



1. Issiqlik almashuvi jarayonida sovuq va issiq suvning ichki energiyasi qanday o‘zgaradi?

2. Termodinamik muvozanatdan so‘ng suvning ichki energiyasi qanday o‘zgaradi?